NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI







# NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

2022- YIL
YANVAR-OKTABR

**2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, Namangan viloyatida jami 5353,0 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 109,3 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2022- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*

## Yillar kesimida soni




**1231** — Bino va inshootlar qurilishi

**265** — Fuqarolik obyektlarini qurilishi

**927** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## Hududlar kesimida




Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yil bilan solishtirganda 94,9 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 50,8 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 10,9 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 38,3 foiz ulushni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga : | | o‘tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.11.2021- y. | 01.11.2022- y. | |
| Namangan viloyati | 2552 | 2423 | 94,9 |
| *tumanlar:* | | | |
| Mingbuloq | 76 | 82 | 107,9 |
| Kosonsoy | 275 | 255 | 92,7 |
| Namangan | 141 | 120 | 84,4 |
| Norin | 136 | 135 | 99,3 |
| Pop | 112 | 115 | 100,0 |
| To‘raqo‘rg‘on | 112 | 105 | 93,8 |
| Uychi | 241 | 243 | 100,4 |
| Uchqo‘rg‘on | 175 | 174 | 98,9 |
| Chortoq | 171 | 172 | 100,6 |
| Chust | 188 | 178 | 94,7 |
| Yangiqo‘rg‘on | 104 | 105 | 101,0 |
| Namangan shahar | 821 | 739 | 89,3 |



# 2022- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

Namangan sh.(30,5)



Kosonsoy (10,5)



Uychi (10,0)





# Qurilish ishlari
# 2022- yil yanvar-oktabr uchun

| | Qurilish ishlari, mln. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Namangan viloyati | 5352997,2 | 532891,7 | 3116232,2 | 1703873,3 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Mingbuloq | 199860,1 | 12050,7 | 93902,0 | 93907,4 |
| Kosonsoy | 420773,9 | 0,0 | 219161,5 | 201612,4 |
| Namangan | 389726,0 | 1949,6 | 269066,8 | 118709,6 |
| Norin | 206443,6 | 0,0 | 86295,3 | 120148,3 |
| Pop | 455843,7 | 195023,1 | 168778,5 | 92042,1 |
| To‘raqo‘rg‘on | 289506,2 | 0,0 | 170132,7 | 119373,5 |
| Uychi | 634620,2 | 44988,2 | 453604,8 | 136027,2 |
| Uchqo‘rg‘on | 298413,5 | 25431,5 | 141664,1 | 131317,9 |
| Chortoq | 409523,2 | 0,0 | 260488,5 | 149034,7 |
| Chust | 303601,5 | 3300,7 | 157005,3 | 143295,5 |
| Yangiqo‘rg‘on | 289349,3 | 0,0 | 145361,4 | 143987,9 |
| Namangan sh. | 1455336,0 | 250147,9 | 950771,3 | 254416,8 |

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 532891,7 mln. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 227,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 5,2 % punktga ko‘payib, 10,0 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari
# 2022- yil yanvar-oktabr uchun

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 42,8 %) ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2022- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,2 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yil ko‘rsatkichiga nisbatan 4,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 101,2 % ni tashkil etgan holda 3116232,2 mln. so‘m miqdorida qayd etildi.**




**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**

**58,2**
2022- yil yanvar-oktabr

**62,9**
2021- yil yanvar-oktabr



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Namangan shahri (950771,3 mln. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 30,5 %), Uychi tumani (453604,8 mln. so‘m yoki 14,6 %), Namangan tumani(269066,8 mln. so‘m yoki 8,6 %)ga to‘g‘ri keldi.*

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 31,8 % ni tashkil etdi yoki 1703873,3 mln. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan 107,6% ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **171936,0** mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5181061,4** mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-oktabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **78,7 %** yoki **4213608,6** mln. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**12,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **532891,7** mln. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **12,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1976843,4** mln. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **47,0 %** ni tashkil etdi

**47,0%**

**40,4%**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1703873,5** mln. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **40,4 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr oylarida

| | Qurilish ishlari, mln. so‘m | o‘sish sur’ati, % da | Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish |
|---|---|---|---|
| **Namangan viloyati** | 5352997,2 | 109,3 | 4213608,6 |
| Namangan shahri | 1455336,0 | 100,1 | 943848,3 |
| *tumanlar:* | | | |
| Mingbuloq | 199860,1 | 101,9 | 134835,5 |
| Kosonsoy | 420773,9 | 100,0 | 391865,6 |
| Namangan | 389726,0 | 114,0 | 294952,6 |
| Norin | 206443,6 | 108,6 | 206466,8 |
| Pop | 455843,7 | 156,6 | 501419,4 |
| To‘raqo‘rg‘on | 289506,2 | 105,4 | 202253,2 |
| Uychi | 634620,2 | 109,4 | 400292,8 |
| Uchqo‘rg‘on | 298413,5 | 129,9 | 332875,1 |
| Chortoq | 409523,2 | 107,8 | 290739,0 |
| Chust | 303601,5 | 111,0 | 269671,0 |
| Yangiqo‘rg‘on | 289349,3 | 109,3 | 244389,3 |

**Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



***Ma’lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

| 2021- yil yanvar-oktabr | | 2022- yil yanvar-oktabr |
|---|---|---|
| 71,7 % | Bino va inshootlarni qurilishi | 72,6% |
| 19,6 % | Fuqarolik obyektlarini qurilishi | 6,6% |
| 8,7 % | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 20,8% |
| 100,0 % | | 100,0 % |

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

*ulushi % da*




Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,2 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 3,5 % punktga kamayib, 48,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamayib, 43,8 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,7 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 10,4 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 79,3 % (10,4 % punktga ko‘paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi (0,0 % punktga ko‘paydi).

*ulushi % da*



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 1,1 % punktga kamaygan va 12,6 % ni tashkil etdi. Qolgan 87,4 % ni kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilga nisbatan 0,9 % punktga ko‘paydi.

